

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
68 sahifa, sentyabr, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI SAMARALI MOLIYALASHTIRISH YO'NALISHLARI



Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

Email: yuldashev92@gmail.com

ORCID: 0009-0001-3285-5536

Annotatsiya: Erkin iqtisodiy zonalar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va eksportni kengaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Ularning samaradorligi moliyalashtirish mexanizmlarining xilma-xilligi va barqarorligiga bog'liq. Ushbu maqolada xalqaro tajribalar asosida erkin iqtisodiy zonalarida investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirishning innovatsion yo'nalishlari, jumladan loyiha moliyasi, davlat-xususiy sheriklik, islomiy moliya va kapital bozori vositalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Erkin iqtisodiy zona, investitsiya loyihasi, moliyalashtirish mexanizmi, loyiha moliyasi, davlat-xususiy sheriklik, islomiy moliya, kapital bozori.

Abstract: Free economic zones are an important instrument for economic modernization, attracting foreign investment, and expanding exports. Their effectiveness largely depends on the diversity and sustainability of financing mechanisms. This article, based on international experience, analyzes innovative approaches to financing investment projects in free economic zones, including project finance, public-private partnerships, Islamic finance, and the use of capital market instruments.

Keywords: Free economic zone, investment project, financing mechanism, project finance, public-private partnership, Islamic finance, capital market.

Аннотация: Свободные экономические зоны являются важным инструментом модернизации экономики, привлечения иностранных инвестиций и расширения экспорта. Их эффективность напрямую зависит от разнообразия и устойчивости механизмов финансирования. В статье на основе международного опыта рассматриваются инновационные направления эффективного финансирования инвестиционных проектов в свободных экономических зонах, включая проектное финансирование, государственно-частное партнёрство, исламские финансовые инструменты и использование возможностей рынка капитала.

Ключевые слова: Свободная экономическая зона, инвестиционный проект, механизм финансирования, проектное финансирование, государственно-частное партнёрство, исламские финансы, рынок капитала.

KIRISH

Hozirgi davrda global iqtisodiyot keskin o'zgarishlar bosqichini boshdan kechirmoqda. Raqobatning kuchayishi, investitsiyalar uchun global bozorlarning ochiqligi va yangi texnologiyalar jadal rivojlanishi natijasida mamlakatlar o'z iqtisodiy siyosatida innovatsion yondashuvlarni izlamoqda. Shu jarayonda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, eksport salohiyatini kengaytirish va mintaqaviy rivojlanishni jadallashtirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida shakllandi. Bugungi kunda BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 5 mingdan ortiq EIZ faoliyat yuritmoqda va ular jahon ishlab chiqarishi hamda tashqi savdo hajmida sezilarli ulushga ega.

Biroq EIZlarning samaradorligi faqatgina soliq imtiyozlari yoki soddalashtirilgan bojxona tartiblari bilan belgilanmaydi. Ularning uzoq muddatli muvaffaqiyati, avvalo, moliyaviy resurslarni samarali jalb etish va ularni oqilona boshqarish bilan bog'liq. Xususan, infratuzilma qurilishi, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini

joriy etish, logistika tarmoqlarini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash katta hajmdagi moliyaviy mablag'larni talab qiladi. Shu boisdan EIZlarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki institutsional va strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro tajribadan ko'rinib turibdiki, moliyalashtirish mexanizmlarining diversifikatsiyasi EIZlarning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, Xitoydagi Shenzhen maxsus iqtisodiy zonasi dastlab davlat banklari krediti yordamida moliyalashtirilgan bo'lsa, keyinchalik kapital bozorlari, obligatsiya emissiyalari va xalqaro investorlarning ishtiroki kengaytirildi. Polsha EIZlari esa Yevropa Ittifoqining strukturaviy fondlari va PPP mexanizmlaridan samarali foydalangan. Birlashgan Arab Amirliklarining Jebel Ali zonasi esa suveren obligatsiyalar va xalqaro bank kreditlari orqali yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirdi. Malayziya tajribasida esa sukuk (islomiy obligatsiya) va boshqa Shariatga mos moliyaviy vositalar orqali EIZlarda barqaror moliyalashtirish tizimi yaratildi.

O'zbekiston uchun EIZlar sanoatni modernizatsiya qilish va eksportni ko'paytirishning muhim tarkibiy qismiga aylandi. 2017-yildan buyon mamlakatda 20 dan ortiq EIZ faoliyat yuritib, ularda farmatsevtika, kimyo, mashinasozlik, to'qimachilik va energetika kabi tarmoqlar rivojlantirilmoqda. Biroq mavjud moliyalashtirish manbalari asosan davlat byudjeti, tijorat banklari kreditlari va xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlari bilan cheklanib qolmoqda. Kapital bozorining rivojlanmaganligi, sukuk yoki yashil obligatsiyalar kabi zamonaviy moliyaviy instrumentlarning yetarlicha qo'llanilmasligi hamda PPP loyihalaridagi institutsional muammolar mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Erkin iqtisodiy zonalar bo'yicha ilmiy adabiyotlarda birinchi navbatda nazariy asoslar keng o'rganilgan. Vernon tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hayotiy sikli nazariyasi ishlab chiqarishning turli bosqichlarida korxonalar arzonroq xarajatli va qulay hududlarga ko'chishini izohlaydi. Ushbu nazariya shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy zonalar transmilliy korporatsiyalar uchun ishlab chiqarishni optimallashtirish va yangi bozorlarga chiqishda muhim maydon bo'lib xizmat qiladi [1].

Krugman tomonidan ilgari surilgan yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi esa hududiy klasterlashuv va tashqi iqtisodiy effektlar orqali erkin iqtisodiy zonalarining samaradorligini tushuntiradi. Unga ko'ra, yirik investitsiyalar va infratuzilmaviy loyihalar bir hududda jamlanganda ishlab chiqarish tannarxi pasayadi, ishchi kuchi samaradorligi ortadi va hududiy raqobatbardoshlik kuchayadi. Shu sababli, zonalarini moliyalashtirish mexanizmlari faqat texnik masala emas, balki iqtisodiy geografiyaning asosiy elementi hisoblanadi [2].

North tomonidan ilgari surilgan institutsional iqtisodiyot konsepsiyasi investitsiya qarorlarida huquqiy barqarorlik va shaffof institutlarning rolini alohida ta'kidlaydi. Uning yondashuviga ko'ra, erkin iqtisodiy zonalarda moliyaviy oqimlarni samarali jalb etish, uzoq muddatli kreditlar berish va xalqaro investorlarni jalb qilish uchun mustahkam huquqiy kafolatlar va aniq qoidalar zarurdir [3].

Farole tomonidan Afrikadagi erkin iqtisodiy zonalar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda moliyalashtirish imkoniyatlarining yetishmasligi asosiy muammo sifatida ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, zonalarda infratuzilma rivojlanmagani, davlat byudjetidan ajratilgan mablag'larning cheklanganligi va tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlariga tayanish EIZlarning kutilgan natijalarni bermasligiga sabab bo'lgan [4].

Xitoy tajribasini o'rgangan Zeng tadqiqotida esa maxsus iqtisodiy zonalarining muvaffaqiyati davlat banklari orqali uzoq muddatli kreditlar berilishi, hukumatning dastlabki moliyaviy qo'llab-quvvatlashi va keyinchalik kapital bozorlarining rivojlantirilishi bilan bog'liq bo'lganini qayd etadi. Bu model moliyalashtirish mexanizmlarining ketma-ket bosqichlarda takomillashib borishini va davlatning dastlabki roli muhimligini ko'rsatadi [5].

Hindiston tajribasini o'rgangan Aggarwal esa moliyaviy cheklovlar, yer ajratishdagi muammolar va kapital bozorlarining sayozligi erkin iqtisodiy zonalarining to'liq ishlashiga xalaqit berganini aniqlagan. Bu holat rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyalashtirishni faqat davlat mablag'lari bilan chegaralab qo'yish zonalarining barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilishini ko'rsatadi [6].

So'nggi yillarda raqamli moliya masalasi ham alohida yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Osiyo Taraqqiyot Banki va Jahon banki tadqiqotlarida fintech platformalari va blokcheyn asosida yaratilgan moliyaviy tizimlar kichik va o'rta biznes subyektlariga kredit olish imkoniyatlarini kengaytirishi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi va moliyaviy oqimlarda shaffoflikni oshirishi ta'kidlangan [7], [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va huquqiy-iqtisodiy tahlil metodlari qo'llanildi. Jahon tajribasidan – Xitoy (Shenzhen), BAA (Jebel Ali), Polsha va Malayziya erkin zonalarini misollarida moliyalashtirish mexanizmlari o'rganildi va O'zbekiston sharoiti bilan qiyoslandi. Normativ-huquqiy



hujjatlar, Prezident qarorlari, xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, Osiyo Taraqqiyot Banki, UNCTAD) ma'lumotlari hamda milliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari asosiy manba sifatida xizmat qildi. Amaliy tahlilda tijorat banklari kreditlari, davlat-xususiy sheriklik loyihalari, obligatsiyalar va islomiy moliya vositalaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi. Metodologiya natijada O'zbekistonda EIZlarda barqaror va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish masalasi ularning uzoq muddatli muvaffaqiyatini belgilab beradigan eng muhim omillardan biridir. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyalashtirish mexanizmlarining xilma-xilligi, risklarni oqilona taqsimlash va davlat hamda xususiy sektorning faol hamkorligi zonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro tajribalarni tahlil qilish O'zbekiston uchun ham foydali xulosalar beradi.

1-jadval. Erkin iqtisodiy zonalarda qo'llaniladigan asosiy moliyalashtirish yondashuvlari

Moliyalashtirish turi	Asosiy xususiyatlari	Kuchli va zaif tomonlari
Davlat byudjeti orqali moliyalashtirish	Hukumat mablag'lari hisobidan infratuzilma qurilishi va imtiyozlar taqdim etilishi	Tezkor infratuzilma yaratiladi, lekin fiskal bosim ortadi va barqarorlik ta'minlanmaydi
Loyihaviy moliyalashtirish (Project finance)	Maxsus maqsadli korxona orqali risklar taqsimlanib, loyiha o'z daromadlari hisobidan qarzlarni qoplaydi	Risklar oqilona taqsimlanadi, investorlar ishonchi ortadi, biroq huquqiy muhit mustahkam bo'lishi talab etiladi
Davlat-xususiy sheriklik (PPP)	Davlat va xususiy sektor birgalikda infratuzilma va xizmatlarni moliyalashtiradi	Moliyaviy yuk kamayadi va xususiy kapital jalb qilinadi, biroq shartnoma shaffofligi muhim hisoblanadi
Kapital bozoridagi vositalar (obligatsiyalar, sukuk, yashil obligatsiyalar)	Moliyaviy bozorlar orqali uzoq muddatli kapital jalb qilinadi	Investor bazasi kengayadi, barqaror moliya ta'minlanadi, ammo bozor chuqurligi va ishonchli reyting zarur

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Ushbu jadval erkin iqtisodiy zonalarda qo'llaniladigan moliyalashtirish modellari turli xil afzallik va cheklolarga ega ekanini ko'rsatadi. Davlat byudjeti qisqa muddatda infratuzilmani yaratishga yordam bersa-da, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlamaydi. Loyiha moliyasi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari esa xususiy sektorni jalb etish va risklarni taqsimlash orqali samaradorlikni oshiradi. Kapital bozoridagi innovatsion vositalar — obligatsiyalar, sukuk va yashil obligatsiyalar esa investorlar doirasini kengaytirib, global moliyaviy talablar bilan uyg'unlashishni ta'minlaydi.

2-jadval. Xorijiy tajribalarda erkin iqtisodiy zonalarni moliyalashtirish

Mamlakat	Moliyalashtirish yondashuvi	Asosiy natijalar va saboqlar
Xitoy (Shenzhen zonasi)	Dastlab davlat banklari kreditlari, keyinchalik kapital bozorlari va xorijiy investitsiyalar	Moliyalashtirishning ketma-ket diversifikatsiyasi muvaffaqiyatning asosiy omili bo'ldi, davlatning boshlang'ich roli muhim
Polsha (Katowice zonasi)	Yevropa Ittifoqi fondlari va davlat-xususiy sheriklik loyihalari	Infratuzilma rivojlantirildi, xorijiy sarmoyadorlar jalb qilindi, xalqaro moliya institutlari ishtiroki samaradorlikni oshirdi
Birlashgan Arab Amirliklari (Jebel Ali zonasi)	Suveren obligatsiyalar emissiyasi va xalqaro banklar bilan hamkorlik	Xalqaro kapital bozorlariga chiqish global investorlarni jalb qildi, logistika va savdo markaziga aylanish imkonini berdi
Malayziya (Iskandar mintaqasi)	Sukuk va boshqa islomiy moliyaviy vositalar orqali infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish	Shariatga mos investitsiyalar jalb qilindi, mintaqaviy moliya ekotizimi kuchaydi va barqarorlik ta'minlandi

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, turli mamlakatlar o'z sharoitidan kelib chiqib turli moliyalashtirish yondashuvlarini qo'llashgan. Xitoy tajribasi bosqichma-bosqich moliyalashtirish modeli samaradorligini ko'rsatsa, Polsha tajribasi xalqaro fondlar va davlat-xususiy sheriklik orqali integratsiyalashuvning afzalliklarini namoyon etadi.

Birlashgan Arab Amirliklarida obligatsiya emissiyasi va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik zonaning global logistika markaziga aylanishiga imkon yaratgan. Malayziya esa islomiy moliya vositalari orqali nafaqat moliyalashtirishni ta'minladi, balki o'z mintaqaviy moliya markazini ham rivojlantirdi. Bu tajribalar O'zbekiston uchun ham moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, xalqaro investorlarni jalb etish va innovatsion moliyaviy vositalardan keng foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Takliflar

Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish uchun bir nechta strategik yo'nalishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, loyiha moliyasi mexanizmlarini institutsional asosda rivojlantirish zarur. Buning uchun maxsus maqsadli korxonalarni tashkil etish, huquqiy bazani mustahkamlash va shartnomaviy majburiyatlarni xalqaro standartlarga moslashtirish lozim. Ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish orqali davlat byudjeti yukini kamaytirish va xususiy kapitalni jalb etish mumkin. Bu borada shaffof tender tizimlari, risklarni oqilona taqsimlash va mustaqil monitoring mexanizmlarini joriy etish talab qilinadi. Uchinchi taklif sifatida, kapital bozorida innovatsion vositalardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Yashil obligatsiyalar, sukuk va barqarorlikka oid boshqa moliyaviy instrumentlar orqali global investorlar bilan hamkorlikni kengaytirish mumkin. To'rtinchidan, xalqaro moliya institutlari bilan kooperatsiyani kuchaytirish lozim. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Islom taraqqiyot banki kabi tashkilotlar tomonidan taklif etiladigan kafolatlar, aralash moliyalashtirish mexanizmlari va siyosiy risklarni kamaytiruvchi vositalardan samarali foydalanish kerak. Beshinchidan, raqamli moliyaviy platformalarni joriy etish orqali kichik va o'rta biznes subyektlarining erkin iqtisodiy zonalar infratuzilmasidan keng foydalanishi va ularning moliyaviy resurslarga kirishini ta'minlash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Erkin iqtisodiy zonalar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va eksportni diversifikatsiya qilishda hal qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq ularning uzoq muddatli muvaffaqiyati moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Xitoyning Shenzhen zonasi bosqichma-bosqich moliyalashtirish modelidan, Polsha xalqaro fondlar va davlat-xususiy sheriklikdan, Birlashgan Arab Amirliklari obligatsiya emissiyasi va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdan, Malayziya esa islomiy moliya vositalaridan samarali foydalangan. Ushbu tajribalar asosida O'zbekiston erkin iqtisodiy zonalarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish uchun davlat byudjetiga ortiqcha yuk tushirmaydigan, risklarni oqilona taqsimlaydigan va xalqaro investorlar ishonchini oshiradigan kompleks moliyaviy strategiyani shakllantirishi lozim. Innovatsion moliyaviy vositalar, barqarorlikka asoslangan yondashuv va institutsional islohotlar uyg'un holda olib borilgandagina erkin iqtisodiy zonalar mamlakat iqtisodiy o'sishini jadallashtiruvchi va global bozorlar bilan integratsiyani kuchaytiruvchi kuchli markazlarga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vernon, R. (1966). International investment and international trade in the product cycle. The Quarterly Journal of Economics, 80(2), 190–207.
2. Krugman, P. (1991). Geography and trade. MIT Press.
3. North, D. C. (1990). Institutions, institutional change and economic performance. Cambridge University Press.
4. Farole, T. (2011). Special economic zones in Africa: Comparing performance and learning from global experience. World Bank.
5. Zeng, D. Z. (2010). Building engines for growth and competitiveness in China: Experience with SEZs and industrial clusters. World Bank.
6. Aggarwal, A. (2012). Social and economic impact of SEZs in India. Oxford University Press.
7. Asian Development Bank. (2020). Harnessing digital financial innovation to address MSME financing gaps. ADB.
8. World Bank. (2013). Crowdfunding's potential for the developing world. World Bank.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100